

XUSUSIY BIRIKUVCHILI BIRIKMALAR MASALASI: KLASSIK SINTAKSISDAN KORPUS LINGVISTIKAGACHA

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.043>

Hamdamov Haydar Azamatovich

hamdamovhaydar@gmail.com

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilshunosligida so'z birikmalarining leksik-semantik tabiatini aks ettiruvchi xususiy birikuvchili birikmalar nazariyasi yoritiladi. An'anaviy sintaktik tadqiqotlarda birikuvchanlik asosan formal-grammatik munosabatlar orqali izohlangan bo'lsa-da, real nutq jarayonida so'zlarning o'zaro birikishi leksik-semantik cheklanish, nutqiy me'yor va assotsiativ faollashuv bilan belgilanadi. Maqolada xususiy birikuvchili birikmalar erkin so'z birikmalari va frazeologik birliklar oralig'ida joylashgan, leksik tanlovi cheklangan, ammo to'liq idiomatik bo'lmagan birliklar sifatida asoslanadi. Shuningdek bu hodisaning shakllanish bosqichlari, klassik sintaksis doirasida talqin qilinishi hamda valentlik nazariyasi va korpus lingvistikasi ta'sirida yangi ilmiy mazmun kasb etgani tahlil qilinadi. Natijada xususiy birikuvchanlikni mustaqil ilmiy obyekt sifatida o'rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: xususiy birikuvchili birikmalar; so'z birikmalari; birikuvchanlik; valentlik nazariyasi; kollokatsiya; korpus lingvistikasi; leksik-semantik seleksiya

THE PROBLEM OF SPECIAL COORDINATIVE COMPOUNDS: FROM CLASSICAL SYNTAX TO CORPUS LINGUISTICS

Hamdamov Haydar Azamatovich

hamdamovhaydar@gmail.com

University of Information Technologies and Management

Abstract: The article examines the theory of restricted collocational units that reflect the lexical-semantic nature of word combinations in Uzbek linguistics. While traditional syntactic studies have predominantly explained combinability through formal and grammatical relations, actual speech practice demonstrates that word co-occurrence is determined by lexical-semantic constraints, normative usage, and associative activation. The study argues that restricted collocational units occupy an intermediate position between free word combinations and phraseological units, being characterized by limited lexical choice while lacking full idiomaticity. The article

analyzes the stages of formation of this phenomenon, its interpretation within classical syntax, and its reconceptualization under the influence of valency theory and corpus linguistics. The findings of the study provide a theoretical foundation for considering restricted collocationality as an independent object of linguistic analysis.

Keywords: restricted collocational units, word combinations, combinability, valency theory, collocation, corpus linguistics, lexical-semantic selection

Kirish. O'zbek tilshunosligida so'z birikmalari masalasi an'anaviy ravishda sintaktik birlik doirasida talqin qilinib, birikuvchanlik hodisasi asosan formal-grammatik munosabatlar, bosh va tobe komponentlar o'rtasidagi bog'lanish vositalari hamda tipik sintaktik modellar orqali izohlangan. Bunday yondashuv til tizimining struktur mexanizmlarini tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, real nutq amaliyotida so'zlarning aynan ma'lum leksemalar bilan muntazam va me'yoriy birikishi masalasini to'liq ochib bera olmadi. Nutq tajribasi shuni ko'rsatadiki, grammatik jihatdan mumkin bo'lgan kombinatsiyalar doirasida hamma birikmalar bir xil darajada tabiiy yoki qabul qilinadigan emas aksincha, leksik-semantik seleksiya, uzus va assotsiativ faollashuv bilan belgilanadigan cheklangan uyg'unliklar mavjud. Bu holat zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda erkin so'z birikmalari bilan frazeologik birliklar oralig'ida joylashgan, leksik tanlovi cheklangan, biroq to'liq idiomatik bo'lmagan birliklar - xususiy birikuvchili birikmalar tushunchasi bilan izohlanmoqda. Bunday birliklar nutqda tayyor ibora sifatida emas, balki leksemaning ma'no salohiyati va nutqiy me'yor ta'sirida shakllanadigan uyg'unliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbek tilshunosligida so'z birikmalari masalasi uzoq vaqt davomida asosan sintaktik birlik sifatida talqin qilinib, birikuvchanlik hodisasi grammatik munosabatlar va struktur modellar doirasida izohlangan. An'anaviy tadqiqotlarda so'z birikmasi gapdan kichik, leksemadan yirik bo'lgan birlik sifatida qaralib, bosh-tobe munosabatlari, bog'lanish turlari hamda tipik sintaktik konstruksiyalar asosiy tadqiqot obyekti tashkil etgan [3: 112-115]. Ushbu yondashuv til tizimining formal mexanizmlarini aniqlashda muhim natijalar bergan bo'lsa-da, so'zlarning real nutqda aynan qaysi leksemalar bilan muntazam va me'yoriy birikishi masalasini ikkilamchi hodisa sifatida qoldirgan.

Keyingi bosqichlarda o'zbek tilshunosligida so'z birikmalarining semantik tabiati va leksik omillar bilan bog'liqligiga e'tibor kuchaya boshladi. Ayrim tadqiqotlarda birikuvchanlik so'z ma'nosining tarkibiy qismi sifatida qaralib, leksik tanlovning cheklanganligi masalasi alohida ta'kidlandi [6: 64-70]. Bu yondashuvlar so'z birikmalarini faqat struktur jihatdan emas, balki semantik uyg'unlik nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatdi.

Frazeologiya doirasidagi izlanishlar esa barqaror birikmalar va iboralarning semantik yaxlitligi hamda turg'unlik darajasini aniqlashga qaratildi. Ushbu

tadqiqotlarda to'liq idiomatik birliklar bilan bir qatorda, ma'nosi tarkibiy qismlaridan to'liq ajralib ketmagan, biroq nutqda me'yoriy uyg'unlik kasb etgan birikmalar mavjudligi ham qayd etildi [9: 97-99]. Biroq bunday birliklar ko'pincha frazeologik birliklar bilan erkin so'z birikmalari oralig'ida aniq nazariy maqomga ega bo'lmagan holda talqin qilindi.

So'nggi yillarda xususiy birikuvchanlik masalasi valentlik nazariyasi doirasida izchilroq talqin etila boshladi. Valentlik yondashuvi so'zlarning boshqa leksemalar bilan birikish imkoniyatini ularning semantik salohiyati bilan bog'liq holda tushuntiradi. Bunday yondashuv doirasida ayrim birikmalar grammatik jihatdan mumkin bo'lsa-da, nutqiy me'yor tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi, boshqalari esa prototipik uyg'unlik sifatida barqarorlashishi qayd etiladi [4: 18-22]. Bu holat xususiy birikuvchili birikmalarni erkin kombinatsiya va to'liq frazeologizm o'rtasidagi oraliq hodisa sifatida asoslashga xizmat qiladi.

G'arb tilshunosligida kollokatsiya masalasi leksik-semantik va korpus yondashuvlar asosida keng yoritilgan. Kollokatsiyalar erkin birikmalar va idiomatik birliklar oralig'ida joylashgan, leksik tanlovi cheklangan, ammo struktur jihatdan ochiq birliklar sifatida talqin qilinadi [1: 1-3]. Ushbu tadqiqotlarda statistik usullar, xususan, so'zlarning birga kelish chastotasi va assotsiativ kuchini aniqlashga qaratilgan metodlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular keyinchalik korpus lingvistikasi metodologiyasining shakllanishiga asos bo'lgan [7: 1-19]. O'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi metodlarining kirib kelishi xususiy birikuvchanlik masalasini empirik asosda o'rganish imkonini yaratdi. Korpusga tayangan tadqiqotlar real nutq materialida so'zlarning birga kelish tendensiyalarini aniqlash, prototipik va periferik birikmalarni farqlash imkonini bermoqda [5: 4-5]. Shu bilan birga, tadqiqotchilar korpus natijalarini lingvistik talqin va normativ manbalar bilan uyg'un holda qo'llash zarurligini ta'kidlamogda [2: 76-83].

Umuman olganda xususiy birikuvchili birikmalar masalasi o'zbek tilshunosligida turli yondashuvlar doirasida yoritilgan bo'lsa-da, ularni mustaqil va izchil ilmiy obyekt sifatida tizimli talqin qilish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot xususiy birikuvchili birikmalarni o'rganishda integrativ metodologik yondashuvga tayangan holda olib borildi. Tadqiqotda an'anaviy tavsifiy-sintaktik yondashuvlar bilan bir qatorda leksik-semantik, valentlikka asoslangan hamda korpus lingvistikasi metodlari uyg'unlashtirildi. Bunday yondashuv xususiy birikuvchanlikni faqat struktur hodisa sifatida emas, balki nutqiy me'yor va leksik seleksiya bilan bog'liq kompleks birlik sifatida talqin qilish imkonini beradi [3: 112-115].

Tadqiqotning dastlabki bosqichida xususiy birikuvchili birikmalar masalasi klassik sintaksis doirasida shakllangan qarashlar asosida tahlil qilindi. Bu bosqichda so'z birikmalarining bosh-tobe munosabatlari, bog'lanish turlari hamda tipik sintaktik

modellar tavsifi asos sifatida qabul qilindi [3: 112-115]. Bunday yondashuv birikmalarning struktur mexanizmini aniqlash imkonini bersa-da, leksik tanlovning cheklanganligi va nutqiy me'yor masalalarini to'liq yoritib bera olmasligi e'tiborga olindi. Keyingi bosqichda xususiy birikuvchanlik valentlik nazariyasi doirasida izohlandi. Valentlik yondashuvi so'zning boshqa leksemalar bilan birikish imkoniyatini uning semantik salohiyati bilan bog'liq holda tushuntirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda xususiy birikuvchili birikmalar so'zning valentlik imkoniyatlari nutqda selektiv va me'yoriy tarzda ro'yobga chiqadigan holat sifatida talqin qilindi [4: 24-26]. Bu yondashuv erkin kombinatsiya bilan me'yoriy cheklangan birikma o'rtasidagi farqni aniqlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida korpus lingvistikasi yondashuvi ham qo'llanildi. Korpus tahlili xususiy birikuvchanlikni empirik asosda aniqlash va tasdiqlash imkonini beruvchi vosita sifatida qaraldi. Ushbu bosqichda so'zlarning real matnlardagi birga kelish chastotasi va assotsiativ kuchi hisobga olinib, xususiy birikuvchanlikka nomzod bo'lgan birliklar ajratildi [2: 76-83]. Biroq tadqiqotda chastota ko'rsatkichlari xususiy birikuvchanlikning yagona mezon sifatida qabul qilinmadi.

Korpus asosidagi tahlil ikki bosqichli metod asosida amalga oshirildi. Birinchi bosqichda statistik mezonlar yordamida muntazam takrorlanadigan so'z juftliklari aniqlanib, xususiy birikuvchanlikka nomzod birliklar ajratildi. Ikkinchi bosqichda esa mazkur birliklar lingvistik interpretatsiyadan o'tkazildi: ularning semantik mosligi, nutqiy me'yor doirasida qabul qilinishi hamda izohli lug'atlar bilan bilvosita tasdiqlanishi tekshirildi [5: 7-8]. Ushbu yondashuv statistik natijalarni lingvistik talqin bilan muvozanatlashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqotda xususiy birikuvchanlikni talqin qilishda markaz-periferiya modeli metodologik tayanch sifatida qabul qilindi. Ushbu modelga ko'ra, ayrim birikmalar prototipik markazni tashkil etib, nutqda eng me'yoriy va barqaror uyg'unlik sifatida namoyon bo'ladi, boshqa holatlarda esa periferik, kontekstual yoki ko'chma xarakterga ega bo'lishi mumkin [4: 41-46]. Bu model xususiy birikuvchili birikmalarni qat'iy kategoriyalar emas, balki gradatsion hodisa sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi struktur-sintaktik tavsif, valentlikka asoslangan semantik tahlil hamda korpus lingvistikasi metodlarining uyg'unligiga asoslandi. Bu integrativ yondashuv xususiy birikuvchili birikmalarni o'zbek tilining leksik tizimida mustaqil va nazariy jihatdan asoslangan obyekt sifatida o'rganish uchun zarur metodologik poydevorni ta'minlaydi.

Natijalar. Malumki, xususiy birikuvchili birikmalar o'zbek tilining leksik tizimida mustaqil va izchil hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bunday birliklar grammatik jihatdan erkin kombinatsiyalar doirasida shakllansa-da, real nutqda ularning qo'llanishi leksik-semantik seleksiya va me'yor bilan cheklangan bo'ladi. Natijada grammatik

imkoniyat va nutqiy tabiiylik o'rtasida farq yuzaga keladi, bu esa xususiy birikuvchanlikning asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [3: 112-115].

Valentlikka asoslangan tahlil xususiy birikuvchili birikmalar so'zning semantik salohiyati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Ayrim leksemalar nutqda muayyan "hamroh" so'zlar bilan muntazam va me'yoriy birikib prototipik uyg'unlik hosil qilsa, boshqa kombinatsiyalar esa grammatik jihatdan mumkin bo'lsa-da, uzus tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi [4: 41-46]. Bu holat xususiy birikuvchanlikni so'z ma'nosining muhim tarkibiy komponenti sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Korpus tahlili natijalari xususiy birikuvchanlikni empirik jihatdan aniqlash imkonini beradi. Real matnlar asosida o'tkazilgan tahlil ayrim so'z juftliklarining yuqori chastota va kuchli assotsiativ bog'liqlikka ega ekanini ko'rsatdi. Biroq statistik ko'rsatkichlarning o'zi xususiy birikuvchanlikni belgilash uchun yetarli emas va ular lingvistik interpretatsiya va nutqiy me'yor bilan tekshirilgandagina ilmiy asosga ega bo'ladi [2: 76-83]. Xususiy birikuvchili birikmalar ko'pincha markaz-periferiya modeli asosida tashkil topadi. Prototipik markazni tashkil etuvchi birikmalar nutqda eng barqaror va me'yoriy uyg'unlik sifatida namoyon bo'lsa, periferik qo'llanishlar ko'chma ma'no, uslubiy belgilanganlik yoki kontekstual omillar bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi [5: 8]. Bu holat xususiy birikuvchanlikni gradatsion hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Olingan natijalar xususiy birikuvchanlikni o'zbek tilida leksik-semantik seleksiya va nutqiy me'yor bilan belgilanadigan, biroq struktur jihatdan ochiq bo'lgan oraliq birlik sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu birliklar erkin kombinatsiyadan farqli ravishda prototipik uyg'unlikka ega bo'lib, to'liq frazeologik barqarorlik darajasiga yetmaganligi bilan tavsiflanadi.

Muhokama. Xususiy birikuvchili birikmalarni an'anaviy sintaktik yondashuvlar doirasida to'liq izohlab bo'lmaydi. Klassik sintaksis birikmalarning struktur qurilishini aniq tavsiflagan bo'lsa-da, leksik tanlovning cheklanganligi va nutqiy me'yor masalalari ushbu yondashuvda ikkilamchi o'rinda qolgan. Tadqiqot natijalari esa xususiy birikuvchanlikni aynan shu omillar belgilashini ko'rsatadi [3: 112-115]. Valentlik nazariyasi doirasida olingan xulosalar xususiy birikuvchanlikni so'zning leksik-semantik imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilishni asoslaydi. Bu yondashuv erkin kombinatsiya bilan me'yoriy cheklangan birikma o'rtasidagi farqni izchil tushuntirishga xizmat qiladi va xususiy birikuvchili birikmalarni alohida ilmiy obyekt sifatida ajratish imkonini beradi [4: 41-46].

Korpus lingvistikasi metodlari natijalari esa nazariy qarashlarni empirik dalillar bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, statistik ko'rsatkichlarga haddan tashqari tayanish xususiy birikuvchanlikning nutqiy va semantik tabiatini to'liq aks ettirmaydi. Shuning uchun korpus natijalari lingvistik talqin va normativ manbalar bilan uyg'un holda qo'llanilishi zarur [2: 76-83]. Ayon bo'ladiki, xususiy birikuvchili birikmalarni qat'iy chegaralangan kategoriya sifatida emas, balki erkinlik va

barqarorlik darajasi bosqichma-bosqich kuchayib boradigan kontinuum doirasida talqin qilish eng maqbul yondashuvdir. Bunday qarash terminologik chalkashliklarni kamaytiradi hamda erkin birikmalar, xususiyl birikuvchili birikmalar va frazeologik birliklar o'rtasidagi munosabatni izchil tushuntirish imkonini beradi [5: 7-8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xususiyl birikuvchili birikmalarni tizimli o'rganish o'zbek tilshunosligi uchun nafaqat nazariyl, balki amaliyl ahamiyatga ham ega. Ular izohli va kollokatsion lug'atlar tuzish, til o'qitish metodikasini takomillashtirish, mashina tarjimasi va avtomatik matn tahlili tizimlari uchun muhim empirik va nazariyl asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada bayon etilgan qarashlar xususiyl birikuvchanlikni mustaqil ilmiyl obyekt sifatida yanada chuqurroq tadqiq etish uchun metodologik poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Benson M. The structure of the collocational dictionary. - Amsterdam, 1989. pp. 4-5.
2. Church K., Hanks P. Word Association Norms, Mutual Information, and Lexicography. - ACL, 1989. - pp.76-83.
3. G'ulomov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent: Fan, 1966. - 112-115-betlar.
4. Ibragimov, J. Y. O'zbek tili mustaqil leksemalarining xususiyl birikuvchilari va ularning modellari: doktorlik dissertatsiyasi (DSc). - Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2023. - 18-22; 24-26; 41-46-betlar.
5. Madaminov A. Xususiyl birikuvchi so'z birikmalari va ularning nutqiy voqelanishi // Til va adabiyot. - 2025. - № 12. - B. 4-5; 7-8-betlar
6. Mahmudov, N. Til birliklarining semantik tabiati. - Toshkent: Fan, 2013. - 64-70-betlar.
7. McKeown, K. R., & Radev, D. R. (2000). Collocations. *In Handbook of Natural Language Processing* (Chapter 15, pp. 1-19). Marcel Dekker.
8. Nurmonov, A. O'zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2002. - 190-191- betlar.
9. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida frazeologik birliklar. - Toshkent: Fan, 2002. - 97-99-betlar.